

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUT

IBRAGIMOV BOBURSHOH BOXODIR O‘G‘LI

**SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGI USLUBIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Ibragimov Boburshoh Boxodir o‘g‘li

Soliq ma‘muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirish.....3

Ибрагимов Бобуршоҳ Боходир угли

Совершенствование методологии налогового администрирования.....35

Ibragimov Boburshoh Bokhodir ugli

Improvement of methodologia of tax administration.....69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....74

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUT

IBRAGIMOV BOBURSHOH BOXODIR O‘G‘LI

**SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGI USLUBIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.1.DSc/Iqt.451 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Isroilov Bohodir Ibragimovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Toshmurodova Buvsara Egamovna

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pulatov Dilshod Xaqberdievich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

To'rayev Shavkat Shuxratovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "_____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "_____" _____ dagi _____ — raqamli reyestr bayonnomasi).

M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayishi sharoitida, tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyatini ta'minlash, ular faoliyatiga davlat organlari aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishda, davlat byudjet-soliq siyosatining ahamiyati oshib bormoqda. Xalqaro soliq va taraqqiyot markazi (ICTD) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar rivojlanayotgan mamlakatlarning 23 foizida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish hamda rivojlantirish strategiyasi tasdiqlanganligini ko'rsatdi¹. Xalqaro darajadagi iqtisodiyotlar globallashuv sharoitida rivojlangan mamlakatlarda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlari ma'muriy bosimni pasaytirish va soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik darajasini oshirish hamda soliq munosabatlari subyektlarining manfaatlari uyg'unligini ta'minlash tamoyillariga asoslanmoqda. Mazkur tamoyillar asosida amalga oshirilgan fiskal islohotlar natijasida soliq to'lovchilar huquqiy madaniyatining oshishi va soliq intizomining yaxshilanishiga erishilmoqda.

Jahonda moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholash, soliq qarzlari yig'iluvchanlik darajasini oshirish, soliq yig'ish xarajatlarini kamaytirish, yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirishda fiskal instrumentlardan foydalanish, elektron tijorat aylanmalarini soliqqa tortishni takomillashtirish hamda soliq to'lovchilar va soliq organlari o'zaro hamkorlik faoliyatini yanada yaxshilash soliq ma'muriyatchiligiga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Transfert narxlarining shakllanishi ustidan nazorat tizimi mukammal emasligi va soliq to'lovchilarning soliq monitoringi mexanizmi to'liq ishlamasligi hamda soliq to'lovchilarning yashovchanligining past darajasi kabi muammolar soliq ma'muriyatchiligi samaradorligiga salbiy ta'sir etmoqda. Qayd etilganlar soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish natijasida soliq monitoringi bilan qamrab olish va soliq to'lovchilar yashovchanlik darajalarini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot hajmini soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hisobiga pasaytirish kabi vazifalarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot mavzusi dolzarbligini belgilaydi. Boqimanda qarzdorlikni undirish samaradorligini oshirishda soliq to'lovchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, soliq monitoringi qamrovini kengaytirishni rag'batlantirish, soliq siyosatida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jazo tizimini liberallashtirish hamda yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishda fiskal instrumentlardan foydalanish masalalarini

¹ICTD bazasi ma'lumotlari

o'rganish soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirishning muhim vazifalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston-2030 strategiyasi” to'g'risida”gi Farmonlari hamda 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-son "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2022-yil 24-martdagi PQ-178-son "Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Soliq ma'muriyatchiligini optimallashtirish davlat byudjet-soliq siyosati ijrosini, iqtisodiyot barqaror o'sishiga erishishni hamda aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilishi, yashirin iqtisodiy sektor faoliyatini legallashtirish va daromadlarni to'g'ri taqsimlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi universitet va ilmiy markazlarida, jumladan, Levi iqtisodiyot instituti (AQSh), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development); Xalqaro soliq va taraqqiyot markazi (The International Centre for Tax and Development, ICTD, AQSh); Fiskal tadqiqotlar instituti (Institute for Fiscal Studies, Buyuk Britaniya); Moliya bo'yicha amaliy tadqiqotlar markazi (The Center for advanced research in Finance, CARF, Yaponiya); Japan International Cooperation Agency (JICA, Yaponiya); Koreya davlat moliyasi instituti (The Korea Institute of Public Finance, Koreya); The University of Faisalabad (Pokiston); Xalqaro Yevropa ta'lim markazi (Centre International de Formation Européenne (CIFE) Fransiya); Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Fiskal institut (O'zbekiston)lari tomonidan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari xususida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlar natijasida iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish yuzasidan bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan:

²The International Agricultural Trade Research Consortium (IATRC). The Impact of Pillar II Funding Validation from a Modelling and Evaluation Perspective, Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS), Agricultural taxation under structural adjustment [2008], Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: Fiscal Policy from Pandemic to War (2020)

2014-2018-yillarda Meksikada (Statistika va geografiya milliy instituti, Meksika) qashshoqlik darajasini 5 foizga qisqartirishga erishilgan; Argentina va Braziliyada kambag'allikning o'sish darajasi to'xtatilishi asoslangan (Statistika va aholini ro'yxatga olish milliy instituti, Argentina, Braziliya geografiya va statistika instituti, Braziliya); fiskal siyosatning bosqichlari, doimiyliigi va o'zgaruvchanligi davlat xarajatlariga ta'sir etishi aniqlangan; davlat xarajatlari doimiyliigi va o'zgaruvchanligi tadbirkorlarning bozordagi faolligi va iqtisodiy o'sishga ta'siri asoslangan (Economic Research Service, AQSh); qo'shilgan qiymat solig'ining to'laqonli zanjirini yaratish mexanizmi; soliqlarning rag'batlantirish rolini oshirish hisobiga investitsiya oqimini ko'paytirish yo'llari; qarzdorlikni garov va kafolat tizimi asosida kechiktirishga ruxsat etish mexanizmi hamda soliq to'lovchilarning yashovchanlik darajasini oshirish yo'llari ishlab chiqilgan (Davlat boshqaruvi akademiyasi va Fiskal institut, O'zbekiston).

Jahonda korxonalar iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: bozordagi talab va taklif o'zgarishi natijasida kafolatlangan (guaranteed "support price") va eng kam me'yoriy narxlarning (minimum legal price) o'rnatilishiga soliqlarning ta'sirini aniqlash (AQSh); soliq stavkalarini o'zgartirishning daromadlarga ta'sirini aniqlash (Germaniya); bioyoqilg'idan foydalanishda soliq imtiyozlarini joriy etish samaradorligini baholash (Yevropa Ittifoqi), fiskal mexanizmlar vositasida yashirin iqtisodiyot hajmini pasaytirish (O'zbekiston).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliq munosabatlarini tartibga solish masalalari A.Temur, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, A.Laffer, T.Gobbs, P.Samuelson, Y.Fisher, K.Makkonnell, N.Menkyu, S.Bryu, V.Belostotskaya, S.Barulin, Y.Kirova, Y.Egorova, D.Chernik, T.Yutkina, V.Titov, L.Min, D.Yunning klassik asarlarida ham o'rganilgan³.

Shuningdek, soliq ma'murchiligini takomillashtirish muammolari A.O'lmasov, A.Vahobov, Sh.Toshmatov, A.Altiyev, M.Almardonov, A.Jo'rayev, T.Malikov, B.Isroilov, O.Abduraxmonov, B.Toshmurodova, Q.Yahyoyev, N.Xaydarov, B.Azimov, N.Kuziyeva, U.Radjabov va boshqalarning tadqiqotlarida ham o'rganilgan⁴.

³A.Temur «Temur tuzuklari», T.: O'zbekiston.2011y. 143- b., A.Смит. «Исследования о природе и причинах богатства народов» М. 1935й Т-2 588-589 б., Макконнелл К., Брю С. Экономика. Принципы, проблемы и политика. –М.: Республика, 1992. – 972 с.; Балацкий Е. Лафферовы эффекты и финансовые критерии экономической деятельности//МЭиМО.–М., 1997.–№11.–С. 31-43; Мэнкью Н.Г. Принципы экономики.–СПб: Питер Ком, 1999.– С. 356; Петти У. Трактат о налогах и сборах. Слово мудрым. Разное о деньгах. – М: Ось-89, 1997.– С. 346; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. Государственное издательство политической литературы.–М., 1955.–С. 360; Самуэльсон П.А., Нордхаус В.Д. Экономика: Пер. с англ.–15-е изд. – М: Бином-КНОРУС, 1999. –С.800; Белостоцкая В.А. Системный подход к измерению налоговой нагрузки//Финансы. – М., 2003. –№336. –37с.; Кирова Е.А. Методология определения налоговой нагрузки на хозяйствующие субъекты //Финансы.–М., 1998. –№9.–С. 30-32; Титов В.В. Влияние налоговой системы на эффективность деятельности предприятия//Финансы. – М, 2006.–№2. – С. 42-46; Черник Д.Г. Налоги. 4-е издание.–М.: Финансы и статистика, 2000.–С. 430

⁴O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri).–T.: Iqtisodmoliya, 2014.– 460 b.; Toshmatov SH.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli: Monografiya –T.: Fan va texnologiya, 2008.–204 b.; Altiev A. Er resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. Monografiya –T.: Fan, 2018, –270 b.; Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari: Monografiya.–T.: Fan, 2004.–243 b.; Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari.–T.: Akademiya,

Lekin raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi va nazoratini takomillashtirish masalalari yaxlit tizim sifatida, ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari soliq ma'muriyatchiligini yangi iqtisodiy sharoitga mos ravishda takomillashtirishni talab etmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliq ma'muriyatchiligining tashkiliy-uslubiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda soliq to'lovchilar va soliq organlari o'zaro hamkorlik darajasini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soliq ma'muriyatchiligi nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda ularning ahamiyati va rolini asoslash;

milliy va xorijiy soliq ma'muriyatchiligi tizimini tahlil qilish va baholash;

soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi, tashkiliy mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini tavsiya etish;

soliq nazorati samaradorligini baholash va oshirish maqsadida raqamli soliq nazoratini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

iqtisodiyot sohalarida yashirin iqtisodiyot hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar darajasini kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

transfert narxni belgilash tizimini tahlil qilish va ushbu yo'nalishda soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarish darajasini baholash hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar ishonchli munosabatlarini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq to'lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, soliq xizmati organlarida inson omilini kamaytirish imkonini beradigan masofaviy tahliliy ishlar tizimini takomillashtirish yo'llarini tavsiya etish;

2000.–276 b.; B.Isroilov. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning echimlari. Monografiya–T.: O'zbekiston,2006.–272 b., Radjapov U.A. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashti-rish sharoitida soliq mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. dis. avtoref.–T., 2006.–24 b.; Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi: Monografiya.–T.: YAngi asr avlodi, 2002.–127 b.; Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti.–T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.–247 b.; Haydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investision faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d. dis. avtoref.–T, 2003.–34 b. Niyazmetov I.M. Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va byudjet daromadlariga ta'siri. I.f.n. dis. avtoref.–T., 2008.–24 b.; To'raev Sh. Xo'jalik sub'ektlarining soliq yukini optimallashtirish masalalari. I.f.n. dis.–T., 2008.–24 b.; G'aybullaev O.Z. Soliq yukini baholashni takomillashtirish masalalari. I.f.n. dis. avtoref.–T., 2004.–20 b.; Botirov A.A. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo'llari. I.f.n. dis. avtoref.–T., 2012.–23 b.; O'rmonov J.J. Kichik biznesni rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantirish funksiyasidan samarali foydalanish istiqbollari. I.f.n. dis. avtoref.–T.: 2010.–23 b.; Yuldashev O.T. O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari. I.f.n. dis. avtoref.–T., 2011.–23 b. Sanakulova B.R. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash. I.f.d. dis. avtoref.–T., 2015.–91 b.; Ashurova N.B. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) dis. avtoref.–T., 2018.–62 b., YUsupov M.S. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2018. 52 b.

solliq majburiyatlari tizimini soddalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; elektron tijorat bo'yicha solliq nazorati samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti solliq organlari va solliq to'lovchilar o'rtasidagi solliq munosabatlarini tartibga solish tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti solliq xizmati organlari va solliq to'lovchilarning davlat solliq siyosati ijrosini ta'minlashga oid iqtisodiy hamda huquqiy jarayonlari tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tahlil va sintez, kuzatish, taqqoslash, guruhlashtirish, tizimli yondashuv, matematik va statistik usullar, shuningdek, tadqiqot ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirish va ular natijalariga baho berish maqsadida bilishning maxsus usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxslar solliq qarzdorliklarini to'lash muddatini o'zgartirish uslubi solliq to'lovchining faoliyat muddati o'n yilgacha bo'lgan holatda mol-mulk garovi bilan, o'n yildan ortiq bo'lgan holatda garov va kafilliksiz solliq to'lash muddatini o'zgartirish huquqini taqdim etish asosida takomillashtirilgan;

solliq monitoringi asosida solliq nazoratini amalga oshirish uslubiyoti daromad hajmidan qat'i nazar o'z xohishiga ko'ra tegishli axborotlarni o'z vaqtida va sifatli taqdim etib borayotgan solliq to'lovchilar uchun qo'llash tartibini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

foydalanilmayotgan obyektlarni yuqori stavkalarda mol-mulk solig'iga tortish tartibini bekor qilish hamda umumbelgilangan tartibda solliqqa tortishni joriy etish asosida mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish taklifi asoslangan;

solliq majburiyatlarini bajarish amaliyotini solliq hisobotlarini taqdim etish talablarini buzganlik uchun belgilanuvchi moliyaviy jazoni bekor qilish hamda solliq hisobotlarini tuzish majburiyatini solliq organlari zimmasiga o'tkazish asosida takomillashtirish tavsiya etilgan;

tarmoq va sohalar kesimida yashirin iqtisodiyot darajasini bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblash uslubiyotini faol aholining solliq huquqbuzarliklarini sodir etgan ulushini inobatga olgan holda aniqlash orqali takomillashtirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bibliometrik tahlil usulidan foydalanishning ilmiy tadqiqotlar nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishdagi roli asoslangan;

solliq organi va solliq to'lovchilarni o'zaro hamkorligi darajasini yanada oshirish uchun solliq hisobotlarini tuzish majburiyatini solliq to'lovchidan solliq organiga o'tkazish taklif etilgan;

solliq ma'muriyatchiligi tashkiliy mexanizmlari va uning elementlari tarkibi tasniflangan;

solliq nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartiblarini belgilashni hukumat vakolatiga o'tkazish taklif qilingan;

transfert narxni belgilashda xorijiy ilg'or davlatlar solliq ma'muriyatchiligi uslubiyotidan foydalanish tavsiya etilgan;

xalqaro shartnomalarga elektron tijorat aylanmasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ayirboshlash to'g'risida alohida modda kiritish hamda ularni soliqqa tortishda iste'molchilarni aniqlash mexanizmlari taklif qilingan;

soliq organlari faoliyatini bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar asosida baholash yo'llari tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar bazasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va boshqa rasmiy manbalardan olingani, shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda ishlab chiqilgan xulosa va takliflar soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy-uslubiy asoslarini, shuningdek, yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlashda soliq tekshiruvlari natijalaridan foydalanishni takomillashtirish imkoniyatlarini berishida o'z aksini topadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, soliq qarzlarni kamaytirish, soliq to'lovchilarning yashovchanlik darajasini oshirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilarning o'zaro hamkorlik faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi xulosalarni shakllantirish va "Soliq ma'muriyatchiligi", "Soliq tizimi va uni takomillashtirish", "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" kabi fanlarning o'quv dastur va qo'llanmalarini davr talabiga mos ravishda takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishining natijalari asosida:

yuridik shaxslar soliq qarzдорliklarini to'lash muddatini o'zgartirish uslubi soliq to'lovchining faoliyat muddati 10 yilgacha bo'lgan holatda mol-mulk garovi bilan, 10 yildan ortiq bo'lgan holatda garov va kafilliksiz soliq to'lash muddatini o'zgartirish huquqini taqdim etish asosida takomillashtirish to'g'risidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-741-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 15-noyabrdagi 05-10/2340-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida, 2022-yilda 8973 ta soliq to'lovchilarning 804,3 milliard so'm miqdoridagi soliq qarzlari muddati uzaytirilishiga erishilgan;

soliq monitoringi asosida soliq nazoratini amalga oshirish uslubiyoti daromad hajmidan qat'iy nazar o'z xohishiga ko'ra tegishli axborotlarni o'z vaqtida va sifatli taqdim etib borayotgan soliq to'lovchilar uchun qo'llash tartibini joriy etish asosida takomillashtirish to'g'risidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-741-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 15-noyabrdagi 05-10/2340-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi

natijasida yillik moliyaviy hisobot bo'yicha daromad hajmi 10 milliard so'mdan 5 milliard so'mga kamaytirilishiga erishilgan;

foydalanilmayotgan ob'ektlarni yuqori stavkalarda mol-mulk solig'iga tortish tartibini bekor qilish hamda umumbelgilangan tartibda soliqqa tortishni joriy etish asosida mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish takomillashtirish to'g'risidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-741-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 15-noyabrdagi 05-10/2340-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida 1 foiz soliq to'lovchilarga nisbatan moliyaviy jazo chorasi qo'llanilmagan va 2022-yil 6-oyida soliq to'lovchilarning 45,7 milliard so'm miqdordagi aylanma mablag'lari ko'payishiga xizmat qilgan;

soliq majburiyatlarini bajarish amaliyotini soliq hisobotlarini taqdim etish talablarini buzganlik uchun belgilanuvchi moliyaviy jazoni bekor qilish hamda soliq hisobotlarini tuzish majburiyatini soliq organlari zimmasiga o'tkazish asosida takomillashtirish to'g'risidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-741-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 15-noyabrdagi 05-10/2340-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida 18,5 ming soliq to'lovchilarga hisoblangan 1,7 trillion so'm soliqlarni hisoblash to'xtatilgan va 20,5 ming soliq to'lovchilarga nisbatan hisoblangan 1,8 trillion so'mlik boqimanda qarzdorlik hisobdan chiqarilishiga erishilgan;

tarmoq va sohalar kesimida yashirin iqtisodiyot darajasini bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblash uslubiyotini iqtisodiy faol aholining soliq huquqbuzarliklarini sodir etgan ulushini inobatga olgan holda aniqlash orqali takomillashtirish to'g'risidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy Nizom"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 11-noyabrdagi 01/1-03-21-62-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlash uslubiyoti soddalashtirilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijasi bo'yicha xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda chop etilgan 2 ta maqolaga 18 ta ilmiy havola berilgan. Jumladan, "Financial Control of Public Procurement to Prevent Corruption in the Development of Digital Economy" (10 ta), "Problems of ensuring economic security in the context of deepening globalization and digitalization" (8 ta). (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 14-aprelda 2666-son bilan ro'yxatga olingan OAK Uslubiy ko'rsatmasi 7-band 3-xatboshisi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan hamda ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni bo'yicha 22,5 bosma taboqdan iborat jami 33 ta ilmiy ishlar (yakka mualliflikda 15 ta), shundan, 1 ta monografiya, 20 ta ilmiy maqola va 7 ta xalqaro hamda 5 ta mahalliy ilmiy anjumanlarda tezislari (4 ta "Scopus" va WoS

bazalarida, 2 tasi xorijiy yuqori impakt faktorli bazalarda indeksiyalangan jurnal, nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 237 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot dolzarbligi va ahamiyati, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soliq munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida soliq munosabatlari tizimining iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashdagi roli, inqirozlar sharoitida davlatning byudjet-soliq siyosati va ma‘muriyatchiligiga nazariy-amaliy yondashuvlari o‘ziga xos xususiyatlari, soliq munosabatlarini tartibga solish tizimini rivojlanish tendensiyalari hamda ularni takomillashtirish masalalari o‘rganilgan va bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Mamlakatni rivojlantirish harakatlar strategiyasida belgilangan “soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish”⁵ to‘g‘risidagi ustuvor vazifa ijrosi ta‘minlanishi mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari va byudjet daromadlarini barqaror shakllantirishga xizmat qilmoqda. 2010-2022-yillarda mamlakatimizning real YaIM o‘sish sur‘atlari tahlili natijalariga ko‘ra o‘sish sur‘atlari o‘rtacha 8,0 foizni tashkil etgan. Shunga mos ravishda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining o‘rtacha o‘sishi YaIMga nisbatan 21,0 foizlik darajani tashkil etgan⁶.

Shuningdek, tahlillarimiz mamlakatimizda yildan yilga iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari soni o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ham ko‘rsatmoqda. 2022-yilning 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 2015-yilga nisbatan 15 foizga o‘sgan hamda ularning soni 583798 tani, faoliyat yuritayotganlari soni esa 548701 tani tashkil etgan bo‘lib, mos ravishda byudjetga soliq tushumlari miqdorining ham o‘sishi kuzatilmoqda.

Tadqiqotlarimiz soliq yukini pasaytirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2015-2022-yillar mobaynida respublikamizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ro‘yxatdan o‘tganlar sonidagi ulushi 56,2 foizdan 60,5 foizgacha hamda iqtisodiyotda ish bilan

⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 fevraldagi PF-4804-sonli Farmoni. lex.uz


⁶Moliya va iqtisodiyot vazirligining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi / www.mf.uz

band bo‘lganlar umumiy miqdoridagi ulushi 74,8 foizgacha o‘sganligini ko‘rsatmoqda⁷.

Soliq to‘lovchilar sonining o‘sib borishi byudjet daromadlari va xarajatlarining miqdoriga ham ta‘sirini o‘tkazadi. Davlat byudjetiga oid soliq ma‘muriyatchiligi tadbirlari natijasida 2021-yilda 127,9 trillion so‘m tushumlar undirilgan va 2020-yilga nisbatan 24,3 trillion so‘mga (+23,5 foiz) ko‘p tushum ta‘minlangan⁸. Byudjet daromadlari tarkibida soliq tushumlarining o‘sish sur‘ati 2022-yilda ham ko‘zatilgan.

Ma‘lumki, soliq to‘lovchilarning uzoq muddatlarda faoliyat yuritishi soliq bazasi miqdori o‘sib borishi va soliq tushumlari barqarorligini ta‘minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Lekin tahlillarimiz soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning yashovchanlik (faoliyat ko‘rsatish davri) darajasi mamlakatimizda hamon past ekanligini ko‘rsatmoqda. 2022-yil natijalariga ko‘ra 572646 ta hisobda turgan yuridik shaxslar (tijorat tashkilotlari)ning 405856 tasi, ya‘ni 70,1 (2021-yilda 72 foiz) foizi faoliyat yuritishi aniqlandi. Ayrim hududlarda soliq to‘lovchilarning yillar kesimidagi yashovchanlik darajasi respublika o‘rta darajasidan ham past bo‘lib qolmoqda.

Tahlillar natijalaridan xulosa qilinadigan achinarli holat shundaki, 10 yildan ortiq faoliyat ko‘rsatgan korxonalar miqdori mamlakatimizda 13,1 foizni tashkil etmoqda. Ushbu korxonalarining aksariyat qismi davlat ta‘sischiligidagi korxonalar hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning 2020-2022-yillar kesimi bo‘yicha yashovchanlik darajasi⁹


⁷Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁸[mf.uz>media/file_uz/state-budget/2021/prevd...2021](https://mf.uz/media/file_uz/state-budget/2021/prevd...2021)

⁹Soliq qo‘mitasi sayti ma‘lumotlari asosida mualliflik ishlanmasi (2023-yil 1-yanvar holatiga).

Tadqiqotlarimiz natijalari soliq to'lovchilarning uzoq muddat faoliyat yuritmasligining asosiy sababi soliq ma'muriyatchiligining soliq to'lovchilar manfaatlariga to'liq mos emasligini ko'rsatmoqda. Holbuki, soliq yukini optimallashtirish borasidagi oqilona soliq siyosat natijasi byudjet daromadlari shakllanishi barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qilishi olimlar tomonidan e'tirof etiladi.

Tadqiqotlarimizda 2020-2022-yillarda Web of Science bazasida nashr etilgan soliq ma'muriyatchiligi mavzusi bo'yicha chop etilgan 354 ta xorijiy va 81 ta mahalliy ilmiy maqolalar bibliometrik tahlil usuli bo'yicha o'rganildi (2-rasm).




2-rasm. Bibliometrik tahlil bosqichlari tasnifi¹⁰

Web of Science analitikasidan foydalangan holda mualliflar berilgan mavzuni o'rganish bosqichlari, shuningdek, maqola turlari bo'yicha xulosalar chiqardi. Ushbu tadqiqot doirasida soliq ma'muriyatchiligini o'rganadigan eng samarali muassasalar - Xalqaro soliq va rivojlanish markazi, Rivojlanishni o'rganish instituti va Rossiya hukumati Moliya universiteti ekanligi aniqlandi.

Bibliometrik tahlil usuli asosida soliq ma'muriyatchiligining tadqiq qilish yo'nalishlari belgilandi (3-rasm).

¹⁰Muallif tomonidan tayyorlandi.



3-rasm. Web of Science bazasida solliq ma'muriyatchiligi bo'yicha chop etilgan ilmiy nashrlar toifasi¹¹

Shuningdek, ushbu baza ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijasida rivojlangan 76 ta davlatlarning 23 foizida solliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bo'yicha strategiya ishlab chiqilganligi aniqlandi va mamlakatimizda ham solliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqish zarur degan xulosaga kelindi.

Yapon olimi Li Dj (Lee J) davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sishning Barro (Barro) modeli asosida davlat xarajatlari tarkibi va uning maqbul miqdorini o'rganish natijasida byudjet xarajatlari umumiy miqdori chegaralangan va daromad solig'i yuqori bo'lgan hollarda iqtisodiy o'sish pasayishi, aksincha, daromad solig'i nisbiy darajada past hamda davlat xarajatlari investitsiyaga yo'naltirilgan holatlarda iqtisodiy o'sish yuqori bo'ladi, degan xulosaga kelgan. Endogen o'sish modeli asosida iqtisodiy o'sish va davlat xarajatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan Bin Lon Chen (Been lon Chen) tadqiqotlari natijasida umumiy iste'mol darajasidan xususiy iste'mol darajasi ustun bo'lgan holatlarda o'sish yuqori bo'lishini e'tirof etadi. Rivojlanayotgan 15 ta davlatlar 28 yillik ma'lumotlarining GMM metodi tahlili asosida davlat xarajatlarining xizmat ko'rsatish va foydalanish yo'nalishlariga yo'naltirilishi sog'liqni saqlash hamda ta'limga yo'naltirilganidan samarali, deb hisoblanadi.

X.S. Asatullayev hamda Sh.O. Toshtemirovlar tomonidan davlat byudjeti xarajatlarining 0,2 va 0,4 foizga hamda davlat byudjeti daromadlarining mos tarzda 0,1 va 0,4 foizga o'sishi esa 2015-2016-yillardagi real YaIMning -0,1 va -0,2 foizga, real YaIMning 2014-yilda 0,1 foizga o'sishida ham davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari o'tgan yillarga nisbatan mos ravishda -0,4 va -0,5 foizga kamayishi kuzatilganligi ta'kidlanadi va olimlar real YaIMning bunday traektoriyada tebranishi aksariyat hollarda davlat tomonidan olib borilayotgan fiskal va monetar siyosatlar natijalaridir, degan fikrga kelgan. Ushbu amaliyot Sharqiy Osiy davlatlari misolida davlat investitsiyalari uchun maqbul darajadagi davlat xarajatlarining

¹¹Web of Science bazasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yo'naltirilishi iqtisodiy o'sishning yuqoriligini ta'minlashga xizmat qilish o'z isbotini topganligiga bugun barchamiz guvohmiz.

Dunyo soliqqa tortish va soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi nazariy-huquqiy asoslarining yaratilishida O'zbekiston davlatchiligi tarixiy tajribasi muhim ahamiyatga egadir. Xususan, "Temur tuzuklari"da hozirda dunyo soliqqa tortish tizimi va soliq ma'muriyatchiligida: soliqlarning davlatni saqlash, boshqarishdagi ahamiyati "Davlatu, saltanat - uch narsa bilan - mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir"; davlat ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligi hamda har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar "xususida to'la ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi" lozimligi; "raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushib qolishidan saqlansinlar", degan soliq stavkalarini adolatli belgilash tamoyili; tabiiy sug'oriladigan yerlardan olinadigan daromad uchdan bir qismi, yomg'ir suvi bilan sug'oriladigan yerlar daromadi ikki qismga taqsimlanib, ulardan choragi soliq sifatida olinishi; soliq to'lovchilar xohlagan taqdirda, natura solig'ining bir qismi joriy narxlar bo'yicha baholanib, pul ko'rinishida to'lanishi mumkinligi; soliqlarni yig'ish uchun mas'ul bo'lgan sipohiy uch yil faoliyat yuritishi va uch yilda bir marta taftish o'tkazilishi hamda taftish natijasi bo'yicha mas'ul xodimga baho berilishi; soliq yig'uvchiga o'lponni yig'ishda so'z va obro'sidan foydalanishi zarurligi, har qanday zo'ravonlikdan foydalanishini ta'qiqlanishi; soliq undirish jarayonida belgilangan tartibga rioya qilishni nazorat qilish maqsadida tarxon boshqaruvi yuritilayotgan viloyatlarga aholini hokimlarning zo'ravonligi va talon-tarojidan himoya qilish uchun mudir lavozimi joriy etilishi to'g'risidagi nazariy qoidalar belgilangan.

Qayd etish zarurki, mamlakatimizning yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 428-moddasida yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlarning 3 tasi Amir Temur soliq tizimi va ma'muriyatchiligi davrida ham amal qilgan. Dunyoning barcha mamlakatlarida soliq stavkalarini aholining daromadlari miqdoridan kelib chiqib belgilash bo'yicha Amir Temur tomonidan qo'llanilgan tartiblarga bugun ham amal qilib kelinmoqda. Lekin A.N. Belogorskaya, I.V. Dimitriyeva kabi ko'plab olimlar A. Smit va uning izdoshlarini, A.V. Andjayeve esa Rossiya davlatchiligini soliq qonunchiligi asosi, deb hisoblaydi. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek davlatchiligi, qonunchilik tizimi tarixi, xususan, Amir Temur va uning soliq siyosati to'g'risidagi nazariy qarashlari hamda Temuriylar davlati soliq tizimi o'rganilmagan. Fikrimizcha, ushbu olimlar tadqiqotlari tugallanmagan va mukammal emas, shu sababli soliq qonunchiligi nazariy va huquqiy asoslari bo'yicha ular noto'g'ri xulosaga kelganlar.

Ilmiy tadqiqot ishining ikkinchi bobi "**Soliq ma'muriyatchiligi tizimi, tarkibi, ularni tasniflash va baholash masalalari**" deb nomlangan. Ushbu bobda soliq ma'muriyatchiligi tizimi, uni tasniflash, soliq majburiyatlari, ular ijrosini tartibga solish, hisob tizimi ma'lumotlari bazasidan soliq munosabatlarini tartibga solishda foydalanish, soliq huquqbuzarliklari va ularni tasniflashning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud uslubiyot muammolari hamda ularni takomillashtirish masalalari o'rganilgan va bob yakunida mazkur masalalar bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Erkin iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi davlatning iqtisodiyotini tartibga soluvchi asosiy moliyaviy mexanizmi hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar

soliq siyosati Keynsning funksional moliya konsepsiyasi nazariyasi asosida ishlab chiqiladi. Ushbu nazariyaning mazmuni davlat soliq siyosati asosiy yo'nalishi byudjet daromadlarini shakllantirish emas, balki soliq ma'muriyatchiligining optimal egiluvchanlik darajasini ta'minlash natijasida mamlakat mehnat va kapital resurslaridan to'liq hamda samarali foydalanish, ichki iste'molni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. O'tish davlatlari soliq siyosati va ma'muriyatchiligi, ming afsuski, soliq to'lovchiga nisbatan repressiv, davlat manfaatining ustunligi, soliq to'lovchi manfaatlarini to'liq hisobga olmaslik, soliq organlarining doim haqligi va soliq munosabatlarini tartibga solishning huquqiy mexanizmlari davlat manfaatiga bo'ysundirilishi bilan xarakterlanadi.

Soliq ma'muriyatchiligi bozor munosabatlari sharoitida davlat byudjeti daromad qismini shakllantirish va soliq to'lovchilarni o'z soliq majburiyatlarini bajarilishini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy mexanizmlari tizimi hisoblanadi¹².

Qayd etish zarurki, rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan bo'lsa-da, ulardagi soliq ma'muriyatchiligi bir-biridan farq qiladi. Ikkinchidan, soliq ma'muriyatchiligi mamlakat rivojlanish darajasi barqarorligidan qat'i nazar iqtisodiy jarayonlar mazmuni va talabiga mutanosib ravishda takomillashib borishni talab etadi.

Institutsional nazariy jihatidan qaralganda, soliq ma'muriyatchiligi soliq munosabatlari, davlat siyosati, tegishli organlari vakolati, soliq qonunchiligi ijrosini nazorat qilish va soliq munosabatlarini tartibga solish tizimlarini o'zida mujassam etgan ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli soliq ma'muriyatchiligi tushunchasi mazmunini iqtisodchilar iqtisodiyotni tartibga soluvchi tashkiliy-moliyaviy tizim, yuristlar esa, soliq ma'muriyatchiligi soliq munosabatlarini tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy mexanizm, deb hisoblaydi.

Soliq ma'muriyatchiligini O.A. Nogina "kam xarajatlar sarflash evaziga ko'p miqdordagi soliqlarni o'z vaqtida undirishga qaratilgan ma'muriy chora-tadbirlar majmuasidir"¹³, V.M. Fokin "soliq huquqiy munosabatlari bilan bog'liq jarayonlar va voqelik hamda ushbu huquqiy soliq munosabatlari ishtirokchilarining harakatlaridir"¹⁴, deb ta'riflaydi. Xuddi shunga yaqin fikrlarni S.V. Ribakova¹⁵, M.N. Denishenko¹⁶ tadqiqotlarida ham uchratish mumkin.

Olimlarning qarashlarida, fikrimizcha, soliq ma'muriyatchiligining byudjetni daromad qismini shakllantirish, byudjet daromadlari tushumini prognozlashtirish, soliq tizimini boshqarish, soliq munosabatlarini tartibga solish kabi jihatlari o'z ifodasini topmagan.

Soliq ma'muriyatchiligi predmetini to'g'ri belgilab olish uni tahlil qilish va natijalariga baho berishni ta'minlaydi. Soliq ma'muriyatchiligi, uning predmetiga

¹²Muallif ta'rifi

¹³Ногина О. А. Налоговый контроль: вопросы теории. – СПб., 2002 (цит. по: Абрамчик Л. Я. Развитие налогового администрирования в Республике Беларусь // Налоговое администрирование : ежегодник–2007 / под общ. ред. С. В. Запольского, Д. М. Щекина. – М., 2008. – С. 74).

¹⁴Фокин В. М. Правовые аспекты соотношения налогового администрирования с налоговым регулированием // Налоговое администрирование : ежегодник–2007 / под общ. ред. С. В. Запольского, Д. М. Щекина. – М., 2008. – С. 16.

¹⁵Рыбакова С. В. Участие кредитных организаций в процессе налогового администрирования: вопросы теории // Банковское право. – 2008. – № 2.

¹⁶Денишенко М. Н. Содержание налогового администрирования, его формы и методы // Сб. науч. трудов СевКавГТУ. Серия «Экономические науки». Вып. № 14.

olimlar tomonidan berilgan ta'riflar mazmuni tahlili ta'riflarda atama mazmuniga turlicha yondashuvni ko'rish mumkin. Masalan, N.A. Osmanova soliq ma'muriyatchiligi ta'rifiga boshqaruvni amalga oshirish, I.B. Romanova soliq siyosati ijrosini ta'minlaydigan munosabatlar, A.X. Evstafeva esa, byudjetga hisoblangan soliqlarni tushirish bilan bog'liq munosabatlar sifatida qaragan. Lekin ushbu ta'riflarda soliq ma'muriyatchiligining funksiyalari to'liq o'z aksini topmagan bo'lib, olimlar qayd etgan jihatlar soliq ma'muriyatchiligining ayrim funksiyalarini ifodalaydi, xolos.

Fikrimizcha, I.A. Gayrabekov¹⁷ yuqorida qayd etilgan olimlardan farqli ravishda soliq ma'muriyatchiligi funksiyalariga kengroq yondashib, uni soliq nazorati, soliq huquqini takomillashtirish, soliqlarni hisoblashni uslubiy ta'minlash va axborotlarni yig'ish hamda qayta ishlash guruhlariga bo'lishni taklif etgan.

Ta'kidlash zarurki, mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar juda kam. Amalga oshirilgan tadqiqotlar aksariyati ayrim soliq turiga bag'ishlangan bo'lib, ularda soliq ma'muriyatchiligi tarkibi, funksiyalari, shakllari, usullari, elementlari, predmeti, obykti va subyektlariga kompleks yondashuv mavjud emas. O'zbekiston qonunchiligiga asosan mamlakatimizda soliq xizmati organlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy elementlari tarkibini quyidagilardan iborat, deb hisoblaymiz (4-rasm).



4-rasm. Soliq ma'muriyatchiligi tarkibiy elementlari tasnifi¹⁸

Davlat soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ma'muriy bosim o'tkazish, muqobil kelishuv va o'zaro hamkorlik qilish

¹⁷Гайрабеков, И. А. Понятие и сущность налогового администрирования налогоплательщиков / И. А. Гайрабеков. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 49 (339). — С. 86-89. — URL: <https://moluch.ru/archive/339/75954/> (дата обращения: 13.08.2022).

¹⁸Muallif ishlanmasi/

usullaridan foydalanadi. Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligiga baho berib borishni yo'lga qo'yish ular tizimini muttasil takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini asosiy va yordamchi (bilvosita) ko'rsatkichlarga bo'lish maqsadga muvofiq. Chunki barcha ko'rsatkichlar, birinchidan, vakolatli organ faoliyatiga kirmaydi, ikkinchidan, ularni xolis subyektlar tomonidan aniqlash vaziyatga to'g'ri baholashni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mazkur yo'nalishdagi qarori xolislik institutini qo'llash tartiblarini aniq belgilab beradi.

Tadqiqotlarimizda soliq ma'muriyatchiligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir etayotgan va o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar borligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Soliq ma'muriyatchiligi muammolari tasnifi¹⁹

Nazariy muammolar	Huquqiy muammolar	Tashkiliy muammolar	Uslubiy muammolar
Soliq ma'muriyatchiligi va uning mazmuni bo'yicha yagona to'xtam yo'qligi	Soliq kodeksi va me'yoriy hujjatlarda soliq ma'muriyatchiligi mazmuniga ta'rif tasdiqlanmagan	Soliq ma'muriyatchiligi tizimi aniq tasnifi mavjud emas	Soliq ma'muriyatchiligi tizimi belgilanmaganligi natijasida ular bo'yicha uslubiy yaxlitlik yo'q
Soliq ma'muriyatchiligi funktsiya va vazifalari bo'yicha qarashlar turlicha ekanligi	Soliqqa tortish va soliq ma'muriyatchiligi bir qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Alohida Soliq protsessual qonuni mavjud emas	Soliq kodeksi va me'yoriy hujjatlarda soliq ma'muriyatchiligi funktsiya va vazifalarining aniq belgilanmaganligi	Soliq ma'muriyatchiligi funktsiya va vazifalari ijrosini ta'minlovchi uslubiy hujjatlar to'liq shakllantirilmagan
Soliq ma'muriyatchiligi sifati bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilmaganligi	Soliq ma'muriyatchiligi sifatini baholash bo'yicha me'yoriy hujjat mavjud emas	Me'yoriy hujjatlar bilan soliq ma'muriyatchiligi darajasini sifat jihatdan baholash tizimi belgilanmagan	Soliq ma'muriyatchiligi sifati ko'rsatkichlarini aniqlash uslubiyoti mavjud emas
Soliq ma'muriyatchiligi va soliqqa tortish tamoyillarida farqlar noaniq bo'lib qolgan	Soliq qonun hujjatlarida soliq ma'muriyatchiligi tamoyillari belgilab qo'yilmagan	Soliq ma'muriyatchiligi tamoyillari aniq tasnifi mavjud emas	Soliq ma'muriyatchiligi tamoyillari mazmuni bo'yicha sharhlar yo'qligi
Soliq ma'muriyatchiligi vakolatli organlar tizimi ko'p pog'onaliligi	Qonun hujjatlarida soliq ma'muriyatchiligi vakolatli organlari funktsiya va vazifalarida takroriylik mavjud	Soliq ma'muriyatchiligi vakolatli organlari soni haddan ortiq ko'p	Soliq ma'muriyatchiligi vakolatli organlari me'yoriy hujjatlarida davlat manfaatlari ustunligi

Soliq munosabatlarining ishtirokchilari ularning subyektlari hisoblanib, uning ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning muhim xususiyati ular huquq va majburiyatlar tizimining qonun normalari bilan belgilab qo'yilishidir. Tadqiqotchilar²⁰ fikricha, soliq ma'muriyatchiligi amaliyotini raqamlashtirish soliq qonunchiligi buzilish xavfi darajasini keskin pasaytiradi, uning samaradorligini oshiradi va soliq komplensi darajasini taxminan 100 foiz bo'lishini ta'minlaydi.

Ushbu fikrga qisman qo'shilish mumkin. Soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish tizimini raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan amaliy ishlar natijasida

¹⁹Muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁰Petukhova R.A., Grigorieva Y.A. Tax Administration in the Digital Economy // Tomsk State University Journal of Economics. 2019. 46. pp. 303–316. DOI: 10.17223/19988648/46/2.

hozirda²¹ soliq to'lovchilarga 10 yo'nalishda jami 45 ta, shu jumladan 20 ta interaktiv va 25 ta axborot xizmatlari ko'rsatiladi. 2017-yilda inkasso tizimi orqali 96698 ta qarzdor soliq to'lovchilardan 4262,6 milliard so'm, 2022-yil mobaynida esa 1527769 ta elektron tarzda banklarga yuborilgan inkasso topshiriqnomalari bilan byudjetga 5392,9 milliard so'm korxonalar qarzdorligini undirilishi ta'minlangan. Soliq to'lovchilar tomonidan 2023-yil 24-sentyabr holatiga 49552924 million. so'm soliqlar ixtiyoriy ravishda byudjetga elektron tarzda to'langan²².

